<i>Usarova Nigora Berdiyevna</i>	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
<i>Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich</i>	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
<i>M. L. Aripova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
<i>Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi</i>	
Malakali futbolchilarni tayyorlashning innovatsion pedagogik va texnologik uslublari.....	802
<i>Maxmudov Mamat Raxmatovich</i>	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	807
<i>Adolat Xolmatova Muxammadjonovna</i>	
Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
<i>Alijonova Dilorom Azamjonovna</i>	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	815
<i>Do'stov Dilmurod Karimovich</i>	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS	O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 818 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich
	The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress 821 Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari 826 Otaboyeva Nodira Qodir qizi
	Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati 830 Qobilova Aziza Tursunovna
	Intellektual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari 833 Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich
	Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish 837 Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.
	Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ 840 Суяров Хуршид Бахриддинович
	Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari 844 Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi
	Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari 852 Turapova Ra'no Barat qizi
	Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish 857 Jurayeva Muhayyo Nematillayevna
	Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari 861 Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.
	Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish 865 Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich
	Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari 868 Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna
	The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives) 873 Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli
	Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish 877 Yuldasheva Gulsanam Arken qizi
	Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов 881 Бахриева Шахноза Давроновна
	Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики" 886 Равшанова Иноят Эркиновна
	Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge" 889 Тагаева Тамара Баходировна
	Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi 892 D. S. Zokirova
	O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari 895 Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich
	Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari 898 Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi
	Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish 901 Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi
	Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari 905 Rustemov Muxamed Biysenbayevich
	The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture 908 Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongning shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process.....	1014
	Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
	The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....	1019
	Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
	Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati.....	1025
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi	
	Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....	1028
	Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1031
	Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.....	1034
	Iminova Z. B.	
	Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....	1038
	Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
	O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1044
	Kalmuratovna Venera Sultanova	
	Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari.....	1049
	Kamola Abdullayeva	
	O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....	1052
	Karimov Orif Obloqul o'g'li	
	Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....	1055
	Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
	Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....	1060
	Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....	1063
	Makulov Shuxratjon Zokirovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....	1067
	Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....	1072
	Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....	1075
	Mansurova Umida Mansur qizi	
	Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....	1081
	Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
	Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....	1084
	Murodov Nozimjon Olimjonovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....	1088
	Nafasova Jamila Turg'un qizi	
	Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....	1093
	Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....	1097
	Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
	Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
	O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
	Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
	Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	1108
	Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
	Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
	Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
<i>Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i>	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
<i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i>	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
<i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
<i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i>	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
<i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
<i>Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi</i>	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
<i>Roziqova Malika Olimovna</i>	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
<i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i>	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
<i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i>	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
<i>T. Seydemetov</i>	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
<i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i>	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i>	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
<i>Utambetova Arzayim</i>	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
<i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i>	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
<i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i>	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
<i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i>	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
<i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i>	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
<i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i>	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
<i>Пак Светлана Викторовна</i>	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
<i>Сагиндигов Алишер Алеуатдинович</i>	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
<i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i>	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
<i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i>	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
<i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i>	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
<i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR ONGIDA OILAVIY MUNOSABATLAR TUSHUNCHASINING RIVOJLANISHI

Rahmonova Dilafro'z Baxronjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda o'yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Oilaviy qadriyatlarni anglash jarayonida bolaning hissiy-idrokiy rivoji, ijtimoiy tajribasi va hamkorlikka tayyorgarligi o'yin orqali mustahkamlanishi ilmiy asosda izohlangan. Shuningdek, bu borada metodologik yondashuvlar, tadqiqot natijalari va muhokama jarayonidan kelib chiqqan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, aksiologiya, umumbashariy qadriyat, milliy qadriyat, shaxsiy qadriyat, oilaviy qadriyat, o'yin terapiyasi, hamkorlik.

Abstract: This article examines the pedagogical potential of play activities in developing a positive value-based attitude toward the family among preschool children. The study scientifically explains how emotional-cognitive development, social experience, and cooperation skills of children are strengthened through play. In addition, methodological approaches, research findings, and the conclusions derived from the discussion are presented.

Key words: value, axiology, universal value, national value, personal value, family value, play therapy, cooperation.

Аннотация: В статье раскрываются педагогические возможности игровой деятельности в формировании у дошкольников позитивного ценностного отношения к семье. Научно обосновано укрепление эмоционально-познавательного развития ребенка, его социального опыта и готовности к сотрудничеству посредством игры. Также представлены методологические подходы, результаты исследования и выводы, полученные в процессе обсуждения.

Ключевые слова: ценность, аксиология, общечеловеческая ценность, национальная ценность, личностная ценность, семейная ценность, игровая терапия, сотрудничество.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim davri bolaning shaxsiyati shakllanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bola o'zini, o'z oilasini, yaqinlarini va atrofda ijtimoiy munosabatlarni anglay boshlaydi. Shuning uchun oilaviy munosabatlar tushunchasining shakllanishi bolaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila jamiyatning eng kichik, lekin eng muhim ijtimoiy bo'g'inidir. Bola shaxsining shakllanishi, uning axloqiy, ma'naviy va hissiy rivojida oila muhitining o'rni beqiyosdir. Bola dastlabki ijtimoiy tajribasini aynan oilada orttiradi, ya'ni u "oila", "ota-ona", "aka-uka", "mehr", "g'amxo'rlik" kabi tushunchalarni kundalik hayotiy tajribasi asosida o'zlashtiradi. Shuning uchun ham bolalarda oila haqidagi tasavvurlarning rivojlanishini o'rganish psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari uchun dolzarb hisoblanadi.

Oila – jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, unda insonning shaxs sifatida shakllanishi boshlanadi. Oila shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyatga moslashuvi uchun zamin yaratadi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar bolaning emotsional rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mehribonlik, g'amxo'rlik va hurmat kabi fazilatlar bolada ijobiy xarakter sifatlarini shakllantiradi. Aksincha, oiladagi nizolar, sovuqqonlik, e'tiborsizlik bolaning psixik rivojiga salbiy ta'sir qiladi.

Oilaviy munosabatlar – bolaning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiylashuvi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishida asosiy omillardan biridir. Maktabgacha yosh davrida bola ongi va tafakkuri jadal rivojlanadi, shu sababli oiladagi munosabatlar va ijtimoiy qadriyatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar aynan shu davrda shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, ko'plab pedagogik va psixologik tadqiqotlar bolalar ongida "oila", "ota-ona", "aka-uka", "mehr-shafqat" tushunchalarining paydo bo'lishi va rivojlanish mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

S. L. Frankning fikriga ko'ra, "oilaviy me'yorlar va qoidalar – bu oila hayoti barpo etiladigan qadriyatli asoslardir. Oila a'zolarining voqelikni tushunishida oilada o'rnatilgan qoidalarga asoslangan huquq va majburiyatlarini anglashlari muhim hisoblanadi. Qoidalar oilaga yordam beradi, unga barqarorlik baxsh etadi. Oilada bu qoidalarning yetishmasligi dilxiralik va tortishuvlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Oilaviy qadriyatlar – bu ochiq, ahamiyatli bo'lgan, oila davrasida ma'qullanadigan va shakllanib boradigan narsadir. Muvaffaqiyat va yutuqlarni qadrlash, agar u haddan tashqari ifodalangan bo'lsa, perfekcionizmga – hayot va faoliyatning maksimal darajada yuqori standartlariga olib kelishi mumkin".

P. F. Lesgaftning fikricha, oilaparvar insonni tarbiya qilish gumanistik-pedagogik nuqtai nazardan oilani qadriyatlar tuyg'usini kamol toptirishning yetakchi maqsadlarini, vazifalarini, mazmuni va metodlarini aniqlab beradi. Bolaning ulg'ayib borishi chog'ida to'g'ri va mahsuldor tarbiyalash uchun ijtimoiy omillar, shu jumladan, oilada bola ishonishi mumkin bo'lgan yaqin insonning borligi yetakchi rol o'ynaydi.

V. A. Suxomlinskiy bola hayotida onaning tutgan o'rniga, shuningdek, oilada bolalarda ayolga, onaga bo'lgani kabi oliyanob munosabatni qaror toptirish masalasiga alohida ahamiyat qaratadi. Farzandlar tarbiyasida pedagog otaga maxsus rol ajratadi, uning roli bir so'z bilan ifodalanadi – mas'uliyat: ota fikr-o'y va xatti-harakatlarni intizomli qila oladi.

H. D. Norqulovning fikricha, "zamonaviy oilalar xilma-xilligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi (tashqi qoidalar va cheklovlarga bog'liq bo'lmagan holda mustaqilligi), shuning uchun oilani maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda (shu jumladan, undan tashqari tadbirlarda) jalb qilishning universal retsepti to'g'risida gapirish mumkin emas".

O'zbekistonlik olimlardan A. Qodirov, M. Murodova, N. Xo'jayev, Z. Nishonovalarning asarlarida oilaning tarbiyaviy funksiyasi, bolaning ijtimoiy tajribasini shakllantirishdagi o'rni keng yoritilgan. Ularning bu mavzudagi fikrlari maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy oilaviy munosabatlarni shakllantirish zarurligini ilmiy asoslaydi. N. Xo'jayev o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida "Oila" mavzusidagi mashg'ulotlar orqali bolalarda mehr-oqibat, hurmat, yordam kabi ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish usullarini tahlil qiladi.

Psixologlar (masalan, L. S. Vygotskiy, J. Piaget, E. Erikson) nazariyalariga ko'ra, bola ongining rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot orqali sodir bo'ladi. Maktabgacha yoshda bola o'zini oilaning bir qismi sifatida anglay boshlaydi, ota-onaning o'zaro munosabatlari, ularning bola bilan bo'lgan muloqoti orqali ijtimoiy xulq me'yorlarini o'zlashtiradi. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasida kattalarning rahbarligi ostida bola o'z imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydi – bu jarayonda oilaning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. E. Eriksonning psixosozial rivojlanish bosqichlari nazariyasida esa 3–6 yosh oralig'i "tashabbus va ayb hissi" bosqichi sifatida belgilanadi. Bu bosqichda bola o'z harakatlari orqali kattalarning munosabatini kuzatadi, oiladagi iliq muhit esa unda ijobiy "men" obrazini shakllantiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va xorijda tadqiqotlar olib borayotgan Sh. Jo'rayeva, G. Karimova, N. Mamatovlar bolalar ongida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish uchun integrativ yondashuvni taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, jumladan, pedagogika va psixologiyada oila, bolalarni oilada tarbiyalash masalalari dolzarb masalalar hisoblanib, mamlakatimiz olimlarining doimiy diqqat markazida bo'lgan. Xususan, oilaning demografik muammolarini hal etish masalalari D. Sharipova, M. Inomova, X. Yo'ldoshev, M. Kaxxarova, oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi O. Musurmonova, X. Norqulov, oilaviy tarbiyaning psixologik asoslari V. Karimova, G'. Shoumarov, E. G'oziyev, S. Tadjiyeva va pedagogik masalalari O. Musurmonova, O. Xasanboyeva, M. Inomova, X. Tojiboyeva kabi olimlarimiz tomonidan keng qamrovli tadqiq etilgan.

Shuningdek, o'zbek adiblari va pedagoglari T. Malikning oila haqidagi qarashlari, xulosalari maxsus tadqiqotlar natijalari bo'lmasada, muhim ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik manba sifatida oilaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchilar uchun muayyan qiziqish uyg'otadi.

TAHLIL VA NATEJALAR

Oila haqidagi dastlabki tasavvurlar bolaning aynan maktabgacha yosh davridan boshlab rivojlanishni boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda oila haqidagi tasavvurlar asosan kuzatuv va taqlid asosida shakllanadi. 3–6 yosh oralig'ida bola oiladagi rollarni kuzatadi, kattalarning o'zaro munosabatini o'rganadi va ularni o'yin faoliyatida aks ettiradi. Masalan, "ota-onalik" o'yinlarida bola ota yoki ona rolini bajarib, oila hayotidagi xatti-harakatlarni takrorlaydi. Bu davrda oila bola uchun muhabbat, xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash manbai sifatida idrok etiladi.

Maktabgacha yosh davridan so'ng, ya'ni bolaning yoshi ulg'aygani sari bolalarda oila haqidagi tasavvurlar yanada murakkablashadi. Ular oila a'zolarining majburiyatlari, mehnat faoliyati, o'zaro hurmat va mas'uliyat



kabi tushunchalarni anglay boshlaydilar. Bu davrda bola o'z oilasini boshqa oilalar bilan taqqoslaydi, ijtimoiy rollarni farqlaydi. Bola o'z shaxsiy "men"ini anglay boshlaganidan so'ng esa bolalar ongida oilaviy qadriyatlarga nisbatan mustaqil munosabat rivojlanadi. Bu davrga kelib bolalar o'z oilasidagi tarbiya uslublarini baholaydi, ota-onasining xatti-harakatlarini tahlil qiladi va kelajakdagi oilasi qanday bo'lishini tasavvur eta boshlaydi. Bu davrda suhbat, psixologik qo'llab-quvvatlash va oila qadriyatlarini targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda oila haqidagi qarashlar nafaqat oilaning o'zida, balki ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va madaniy muhit orqali ham rivojlanadi. Kitoblar, multfilmlar, teleko'rsatuvlar va internetdagi kontent bolalarning oila haqidagi tushunchalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pedagog va ota-onalar bolalarning informatsion muhitini nazorat qilishlari va sog'lom oilaviy qadriyatlarni targ'ib etishlari lozim.

Oila – bu bola uchun birinchi ijtimoiy muhit, unda u mehr, g'amxo'rlik, hamjihatlik, hurmat, yordam kabi qadriyatlarni o'rganadi. Oilaviy munosabatlar deganda:

- ota-ona va bola o'rtasidagi hissiy bog'liqlik;
- o'zaro hurmat va ishonch;
- majburiyat va mas'uliyat hissi;
- mehr-oqibat kabi jihatlar tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oila haqida tushunchalarning bosqichma-bosqich shakllanishi quyidagi tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Yosh bosqichi	Rivojlanish xususiyatlari	Oila haqidagi tushuncha
3–4 yosh	Bola o'zining oilasini ajrata oladi (mama, dada, aka, opa)	"Oila – bu men yashaydigan joy"
5–6 yosh	Oiladagi rollarni anglay boshlaydi	"Dada ishlaydi, mama ovqat tayyorlaydi"
6–7 yosh	Axloqiy va ijtimoiy tushunchalar shakllanadi	"Oila – bu bir-birini sevvuchi va yordam beruvchi odamlar"

Maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

- suhbatlar (masalan, "Bizning oilamiz", "Ota-onam kim?");
- ertaklar va hikoyalar ("Mehribon ona", "G'amxo'r ota");
- rolli o'yinlar ("Oila a'zolari roli", "Bayramda oila bilan");
- rasm chizish va qo'g'irchoq teatrlari orqali mustahkamlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi oilada ota-onalar bolaga shaxsiy namuna orqali ham o'rgatib boriladi:

- ota-onalarning bir-birlariga o'zaro hurmat va e'tibor ko'rsatishlari;
- ota-onalarning farzand bilan mehrlil muloqot qilishlari;
- ota-onalarning oilada bola uchun ijobiy psixologik muhit yaratishlari;
- ota-onalarning oilada bolaga o'z fikrini aytish erkinligini berishlari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi bola shaxsining barkamollikka erishishida muhim ahamiyatga ega. Bu tushuncha ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi psixologik muhit va ta'lim tashkilotida pedagoglar tomonidan olib boriladigan maqsadli pedagogik ishlar orqali shakllanadi. Oilada bolaning mehr, g'amxo'rlik, hamkorlik, hurmat, sabr kabi fazilatlarini o'stirish orqali u kelajakda sog'lom, ijtimoiy faol, axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol topadi. Bolalarda oila haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi bosqichma-bosqich kechadi va bu jarayon oiladagi muhit, tarbiya usullari hamda ijtimoiy omillarga bog'liqdir. Har bir bosqichda bolaning yosh xususiyatlariga mos tarbiyaviy yondashuvni qo'llash, o'zaro mehr-muhabbat va hurmat muhitini yaratish uning sog'lom shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xasanboyeva O. Oila pedagogikasi. Darslik. – Toshkent: Aloqachi nashriyoti, 2007. – 384 b. (149–152-b.)
2. Shoumarov G. B., Haydarov I. O., Sog'unov N. A., Akramova F. A., Solihova G., Niyozmetova G. Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. – 296 b. (53–68-b.)
3. Asqarova O. M., Xayitboyev M., Nishonov M. S. Pedagogika. Darslik. – Toshkent: Talqin nashriyoti, 2008. – 288 b. (232–235-b.)
4. Ahmedova M. Falsafa. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 496 b. (432–440-b.)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.